ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

BOZOROV HAMID XO‘SHMURODOVICH
Folklorda til va madaniyat aloqadorligi (o‘zbek xalq ertaklari misolida) 75

МУНДАРИЖА

АМОНТУРДИЕВА ШОИРА РАВШАНОВНА
Диний услуб фразеологияси 80

OZOTBOYEVA MAXFUZA RAVSHAN QIZI
Komil Avazning “Qo‘nalg‘a” asarida dialektal diskursiv shaxsning lingvopragmatik talqini 86

MUHSINJONOVA SHIRINOY ASLIDDIN QIZI
“Devonu lug‘otit-turk” oziq-ovqat nomlarini qiyosiy o‘rganish uchun asos sifatida..... 90

KO‘CHIMOVA SHAHLO NURIDDIN QIZI
Yuridik matnlarning ekstralingvistik omillari va ularning mazmun shakllanishidagi o‘rni..... 93

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ, НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА
Икки дарё оқиб ўтди..... 97

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 103

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация
тюркского эпоса в XXI веке… 105

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 109

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской
малой прозы в постсоветскую эпоху… 112

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 115

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik..... 119

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati… 122

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 126

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 129

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 131

FERUZA SULTONQULOVA
Usmon Azim she’riyatida Boysun yetakchi motiv sifatida… 134

KIRGIZOVA GULNOZA MAMADALIYEVNA
Iqbol Mirzo she’riyatida fikr va tuyg‘u uyg‘unligi… 137

QAHHAROVA DILAFRO‘Z ABDUG‘AFFOROVNA
Zamonaviy o‘zbek qissachiligi: xalq an’analari va yangi badiiy shakllar… 140

MAMATQULOV BOTIR
Nazar Eshonqul hikoyalarida shaxs fojiasi talqini..... 143

ABDUNAZAROV O‘TKIR
Bolalar adabiyotida ijodiy izlanishlar (Nosir Fozilov asarlari misolida) 149

TA’LIM

NODIRA JALOLOVA
Kommunikatsion menejment tushunchasi va uning funksiyalari 155

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

KOMMUNIKATSION MENEJMENT TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI

Nodira Jalolova,
O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti
mustaqil izlanuvchisi

Bugungi tezkor axborot asrida tashkilotlar faoliyatining samaradorligi va barqarorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgan kommunikatsiyaga bog'liq. Shu sababli davlat va nodavlat tashkilotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan samarali kommunikatsion menejmentga aloqador deyish mumkin. Kommunikatsion menejment – bu axborot oqimlarini tashkil etish, tashkilotning ichki va tashqi munosabatlarini mustahkamlash, ya'ni davlat va nodavlat tashkilotlarning ichki va tashqi axborot almashinuvi jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish va optimallashtirishga qaratilgan tizimli boshqaruv faoliyatidir. Ushbu menejment yo'nalishi kommunikatsiya strategiyasini ishlab chiqish, maqsadli auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish, imijni boshqarish, axborot oqimlarining aniqligi, tezligi va ishonchliligini ta'minlash orqali tashkilotning strategik maqsadlariga erishishiga xizmat qiladi.

Kommunikatsion menejment mohiyatiga ko'ra, boshqaruvning muhim elementi bo'lib, tashkilotda funksional aloqalarning uyg'unlashuvi, xodimlar va rahbarlar o'rtasidagi samarali muloqot, tashqi manfaatdor tomonlar bilan ishonchli hamkorlikni shakllantirishni ta'minlaydi. Shunday ekan, kommunikatsion menejment sohasidagi nazariy va amaliy jihatlar, uning funksiyalari va samaradorlik omillari bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning dolzarb mavzulariga aylanmoqda. Ushbu ilmiy maqolada kommunikatsion menejmentning asosiy tushuncha va funksiyalari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, kommunikatsion menejment funksiyalarini chuqur tahlil qilish va to'g'ri tatbiq etish orqali tashkilotda axborot oqimlarining aniqligi, tezligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlash mumkin.

Kommunikatsion menejment funksiyalari – bu axborotni rejalashtirish, tashkillashtirish, tarqatish, nazorat qilish, muvofiqlashtirish va tahlil qilishga yo'naltirilgan kompleks boshqaruv faoliyatidir. Ular rahbar va ijrochilar o'rtasida samarali axborot almashuvini yo'lga qo'yish, tashqi hamkorlar bilan uzviy aloqalarni ta'minlash va umumiy strategik maqsadlarga erishishda muhim vositadir. Quyida kommunikatsion menejmentning qator funksiyalari keltirib o'tiladi:

Kommunikatsion menedjmentning klassik funksiyalari: Kommunikatsion menedjmentning ko'pgina funksiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muayyan natijalarga erishishga yo'naltirilgan yaxlit va ko'p elementli tizimni tashkil etadi. Maqsadlar va qo'llash sohasi asosida barcha asosiy kommunikatsion funksiyalar o'ziga xos usul va metodlarga ega. V.E.Reva klassifikatsiyasiga ko'ra, kommunikatsion menedjmentning quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Tahliliy va bashoratli funksiya: Tashkilot faoliyatining murakkab jarayonlarida, uning sohasi va faoliyat yo'nalishidan qat'i nazar, tahlil va bashorat qilish boshqaruvning ajralmas qismiga aylangan. Bu holat kommunikatsion jihatga ham taalluqlidir. Ichki va tashqi kommunikatsion audit, prognozlar tuzish hamda vaziyatlar bankini shakllantirish – bularning barchasi zamonaviy boshqaruv tizimining muhim elementlari hisoblanadi.

Tashkiliy-boshqaruv funksiyasi: Aloqalarni boshqarishda strategiya va taktika belgilash, maqsad va vazifalarni qo'yish, rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, vaziyat o'zgarishiga tezkor javob qaytarish.

Kommunikativ-axborot funksiyasi: Ushbu funksiya tashkilotdagi barcha tizim elementlarini axborot bilan ta'minlashga yo'naltirilgan. Bunga ma'lumot oqimlarini barcha yo'nalishlarda boshqarish, ularga ishlov berish, filtrlash va miqdorini boshqarish kiradi. Axborot almashinuvi "rahbar–bo'ysunuvchi", "rahbar–rahbar" hamda "bo'ysunuvchi–bo'ysunuvchi" tizimlari doirasida olib boriladi.

Konsultativ-uslubiy funksiyasi: Bu funksiya, birinchi navbatda, xodimlarni o'qitish, ularning kommunikativ qobiliyati va savodxonligini oshirishga, shuningdek, tashkilotda kommunikativ xulq-atvorning me'yorlari va qoidalarini yaratishga qaratilgan.

Bundan tashqari, kommunikatsion menejmentning umumiy funksiyalari orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Maqsad qo'yish. Ushbu funksiya tashkilotning asosiy missiyasi va global strategik vazifalari bilan bog'liq. Maqsad qo'yish – bu tashkilotning strategik rivojlanishiga oid nihoyatda muhim jarayondir. Yakuniy maqsadni bilish, qanday natijalarga erishish kerakligini tushunish – tashkilotning kommunikatsion jarayonlari-

ni boshqarish tamoyillarini shakllantirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Ichki va tashqi hamkorlar bilan munosabatlar tizimi tashkilotning asosiy maqsadig teskari bo'lmasligi lozim.

Rejalashtirish. Kommunikatsion jarayonni bosqichlarga ajratish qat'iy nazorat ostida, teskari aloqa effektlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Reja – har bir bosqich yoki aniq vaziyat uchun vaqt va resurslarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Ichki va tashqi hamkorlar bilan munosabatlar tizimi qat'iy tuzilgan va aniq muddatlar bilan chegaralangan bo'ladi.

Tashkil etish. Ushbu funksiyaning vazifasi – jamoaviy va individual harakatlarni uyg'unlashgan, yaxlit tizim sifatida muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan. Tashkilotning barcha faoliyat yo'nalishlarida kommunikatsion jarayonlarning teng va izchil rivojlanishini nazorat qilish nihoyatda muhim. Tuzilma bo'linmalari, bo'limlar va xodimlar o'rtasida nomutanosiblik va tengsizlikka yo'l qo'yilmasligi kerak. Ichki va tashqi hamkorlar bilan munosabatlar tizimi funksional va axloqiy tenglikka asoslanadi.

Motivatsiya. Xabarni qabul qiluvchining javobiga yo'naltirilgan bo'lib, uni muayyan harakatga undashni maqsad qiladi. Bugungi kunda motivatsiya tashkilot maqsadlariga erishish jarayonida ijro etuvchi xodimlarga ta'sir o'tkazishning asosiy vositasiga aylangan. Ichki va tashqi hamkorlar bilan munosabatlar tizimi rag'batlantirish va jazolash o'rtasidagi muvozanatga asoslanadi.

Nazorat va natijalarni baholash. Ushbu funksiya doirasida rejalashtirilgan mukammal rejani mavjud vaziyatning real rivojlanishi bilan tanqidiy taqqoslash amalga oshiriladi. Nazorat funksiyasi rejalashtirilgan rivojlanishning har bir bosqichida bajarilishi lozim bo'lib, barcha kommunikatsiya harakatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ichki va tashqi hamkorlar bilan munosabatlar tizimi doimo rahbariyatning diqqat markazida bo'ladi.

Nazorat jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

a) kommunikatsion jarayonlar va asosiy vaqt bosqichlarini solishtirish uchun optimal yo'nalish yoki asos (bazani) ishlab chiqish, nazoratni amalga oshirish davriyligini belgilash;

b) o'lchanadigan parametrlar (xususiyatlar)ning amaldagi qiymatlarini aniqlash;

c) nazorat qilinayotgan parametrlarning amaldagi qiymatlarini rejalashtirilgan (bazaviy) qiymatlar bilan taqqoslash, og'ish miqyosini va sabablarini tahlil qilish;

d) rejalashtirilgan yoki amaldagi yo'nalishni (trayektoriyani) tuzatish zaruratini asoslash;

e) asosli tuzatishlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan chora-tadbirlarni bajarish[1].

Kommunikatsion menejmentning ixtisoslashtirilgan funksiyalari:

Kommunikatsion menedjmentning o'ziga xos xususiyatlari bir qator ixtisoslashtirilgan funksiyalarda ham aks etadi.

– Integratsion funksiyasi. Ushbu funksiya kommunikatsion jarayonni eng samarali tarzda tashkil qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ijodkorlikni rag'batlantirish maqsadida ishbilarmon hamkorlar, mutaxassislar va boshqalarni birlashtirish vositasi hisoblanadi. Kommunikatsiya birlashtiruvchi kuch bo'lishi, umumiy vazifani bajarish yo'lida qulay va samarali hamkorlik uchun maxsus makon yaratishi lozim.

– Axborot funksiyasi. Bugungi kunda har qanday inson kuchli axborot bosimi ostida qolmoqda. Turli manbalar orqali tarqalgan ma'lumotlar insonning ijtimoiy makondagi idroki va o'zini anglashiga ulkan ta'sir ko'rsatadi. Tashkilot ichidagi axborot oqimlarini filtrlash, saralash, tuzish va tahrirlash – kommunikatsion menedjmentning eng muhim funksiyalaridan biridir.

– Aloqa o'rnatish funksiyasi. Bu yerda barcha kommunikatsiya ishtirokchilari o'rtasida o'zaro tushunishni oshirish maqsadida umumiy qadriyatlar, xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini shakllantirish nazarda tutiladi. Aloqa o'rnatish – kommunikatsion menedjmentning eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, u kompaniyaning tashqi muhitida (hamkorlar, mijozlar, raqobatchilar, OAV, davlat boshqaruvi va nazorat organlari va boshqalar) ham, ichki muhitida (hamkasblar, rahbarlar, bo'ysunuvchilar va boshqalar) ham katta ahamiyatga ega.

– O'zini namoyon etish funksiyasi. Bu – kommunikatsion menedjmentdagi eng ijodiy funksiyalardan biri bo'lib, kompaniyaga ichki va tashqi muhitga nisbatan o'zini ochib berish imkonini beradi. Bu imidjni yaratish yoki uni tuzatish, obro' ustida ishlash, kompaniyaning ommaviy axborot makonidagi va bozor tizimidagi o'rni hamda mavqeini mustahkamlash orqali amalga oshiriladi.

– Ritual funksiyasi. Kompaniya ichki imidji va xodimlarning o'zini kompaniya bilan identifikatsiya qilishi (o'zini bir butun deb his qilishi) naqadar muhimligini ortiqcha baholash qiyin. An'analar, umumiy qadriyatlar va norasmiy muloqotning shakllanishi xodimlar o'rtasida maksimal darajada qulay hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Birgalikda tashkillashtirilgan sayohatlar, bayram tabriklari, sport musobaqalari kabi tadbirlar hissiy kayfiyatni oshiradi, empatiya (boshqalarni tushunish) qobiliyatini rivojlantiradi va o'zaro yordamga tayyorlikni kuchaytiradi.

– Ta'lim funksiyasi. Tashkilot xodimlarining bilim olishga oid kognitiv (idrokiy) motivatsiyasini faollashtiradi hamda shaxslararo va ishbilarmonlik muloqoti sohasidagi bilimlarni kengaytirishga imkon beradi. Ushbu funksiya doirasida muzokara va mediaatsiya texnologiyalari bo'yicha ko'nikmalar, shuningdek, ij-

[1] Акопова.Г.Л. Коммуникацион менеджмент. – М.: Питер, 2020. – 31 с.

timoiy mojarolarni boshqarish bilan bog‘liq malakalar shakllantiriladi.

Kommunikatsion menejment funksiyalari Anri Fayol nazariyasida. Menejment sohasida nazariyotchi-tadqiqotchi sifatida faoliyat yuritgan fransiyalik Anri Fayol 1841-yil Turkiyada tug'ilgan. Dastlabki faoliyati davomida Fransiyadan tashqarida mashxur bo'lmagan. "Umumiy va sanoat boshqaruvi" nomli asari chop etilgach, u nafaqat biznes hamjamiyatida, balki ilmiy doiralarda ham keng e'tirof etila boshlangan. Bugungi kunda Anri Fayol haqli ravishda boshqaruvning ma'muriy (administrativ) maktabi asoschilaridan biri hisoblanadi[1].

Anri Fayolning e'tirof etilishi va muvaffaqiyati uning tashkilotni boshqarishga oid chuqur tizimli yondashuviga asoslanadi. Bu yondashuv esa, o‘z navbatida, funksional tamoyilga tayanadi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

− yillik va o‘n yillik rejalarni tayyorlash hamda ularni amalga oshirish;

− ish rejasi-jadvalini tuzish, yuritish va nazorat qilish;

− xodimlarni sifatli tanlash, o‘qitish va moslashtirish, shuningdek, xodimning malaka va ko‘nikmalarining egallagan lavozimga qat'iy mos kelishini ta'minlash;

− jamoaviy zanjir va o‘zaro bog‘liqlik tamoyili;

− tuzilmaviy bo‘lim rahbarlarining muntazam yig‘ilishlari orqali samarali va tezkor muvofiqlashtirishni ta'minlash.

Tijorat korxonasini boshqarish jarayonining samarali modelini yaratishda Fayol menejmentni amalga oshirishda funksional yondashuvga alohida e'tibor qaratgan. Albatta, bu yerda to‘g‘ridan-to‘g‘ri kommunikatsion menejment haqida so‘z bormayapti, ammo Fayolning nazariyasi asosidagi asosiy g‘oya va tamoyillar ushbu sohadagi ilmiy bilimlarning rivojlanishiga poydevor bo‘lib xizmat qilgan va uning izdoshlari tomonidan yanada rivojlantirilgan. Anri Fayol ilgari surgan tashkiliy boshqaruv xususiyatlari kommunikatsion amaliyotga juda mos keladi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri "menejerlik" funksiyalariga kelsak, u quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

− *Texnik funksiyasi* – jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarning "mexanikasi" bilan bog‘liq barcha jarayonlar;

− *Tijorat funksiyasi* – bozor munosabatlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan faoliyat;

− *Moliyaviy funksiyasi* – pul oqimlarini boshqarish va optimallashtirish;

− *Xavfsizlik funksiyasi* – shaxsiy ma'lumotlar va korporativ mulkni himoya qilish;

− *Hisobot funksiyasi* – bajarilgan ishlar, sarflangan resurslar va olingan natijalar bo‘yicha tahlil;

− *Ma'muriy funksiyasi* – boshqaruv vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, rejalashtirish va prognozlash.

Ushbu funksiyaning ahamiyatini hisobga olgan holda, Fayol menejerlar uchun bir qator tavsiyalarni ilgari surdi:

a) rejani to‘liq bajarilishini kafolatlash;

b) kompaniyaning umumiy rivojlanish strategiyasi moddiy va inson resurslariga to‘liq mos kelishini ta'minlash;

c) aniq va samarali kommunikatsion aloqalar o‘rnatilgan qat'iy ierarxik tuzilmaning mavjudligi.

Quyida Anri Fayolning POSDCORB klassifikatsiyasiga asoslangan kommunikatsion menejment funksiyalari keltirilgan (Plan – rejalashtirish, Organise – tashkil etish, Staff – kadrlar yollash, Direct – boshqarish, Coordinate – muvofiqlashtirish, Report – hisobot, Budget – byudjet).

Rejalashtirish. Reja tuzish jarayoni nafaqat o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritish imkoniyatlarini, balki siyosiy yoki iqtisodiy sharoit kabi tashqi omillarga moslashuvchanlikni ham nazarda tutadi. Rejalashtirish – kommunikatsion menejmentning asosiy funksiyasi bo‘lib, uni amalga oshirayotgan rahbarlar va ijrochilardan yuqori darajadagi malaka talab etiladi.

Tashkil etish. Ushbu funksiya kommunikatsiyalarni boshqarish bo‘yicha umumiy rejani amalga oshirish jarayonida mas'uliyat va vakolatlarni taqsimlash bilan bog‘liq. Ushbu funksiyaning ahamiyatini hisobga olgan holda, Fayol menejerlar uchun bir qator tavsiyalarni ishlab chiqqan:

a) reja tayyorlash va bajarilishini oqilona ta'minlang;

b) inson va moddiy resurslar kompaniyaning maqsadlari, resurslari va umumiy siyosatiga mos kelishini nazorat qiling;

c) tashkilot uchun yagona ierarxiya va kommunikatsiya kanallarini yarating;

d) faoliyatni uyg‘unlashtiring va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtiring;

e) aniq, ravshan va to‘g‘ri qarorlar qabul qiling;

f) samarali xodimlarni tanlash uchun sharoit yarating;

g) vazifalar doirasini aniq belgilang;

h) tashabbuskorlik va mas'uliyatni qo‘llab-quvvatlang;

i) taklif etilayotgan xizmatlar uchun adolatli mukofot taqdim eting;

j) xatoliklar va nosozliklar yuzaga kelganda sanktsiyalar qo‘llang;

k) intizomni ta'minlang;

l) shaxsiy manfaatlar umumiy manfaatlarga bo‘ysunishini kuzatib boring;

m) vakolatlarga alohida e'tibor bering;

n) moddiy va inson resurslarini boshqaring;

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/FayolAnri

o) hamma narsani nazorat ostida ushlang;

p) ortiqcha nazorat, byurokratiya va tormozlovchi jarayonlarga qarshi kurashing.

Muvofiqlashtirish. Kommunikatsiyalarni boshqarish – doimiy aralashuv va tuzatishlarni talab qiladigan dinamik jarayondir. Ba'zi fikrlarga ko'ra, tajribali kommunikatsiya menejerining vaziyatlar va ularga mos yechimlar banki bor bo'lib, u hozirgi paytda yuz berayotgan holatlarga mos keladigan variantlarni tanlaydi va qo'llaydi. Ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, to'liq bir xil vaziyatlar mavjud emas; har doim asosiy samaradorlik mezonlarini hisobga olgan holda noyob yondashuv izlash zarur. Bundan tashqari, ushbu funksiyaning doirasida strategik maqsadga erishish jarayonida resurslar va vaqt taqsimoti amalga oshiriladi.

Boshqarish. Bu yerda boshqaruv – Fayol tomonidan "direct" deb atalgan tor va ixtisoslashgan ko'rinishda amalga oshiriladi, bu so'zma-so'z "buyruq berish" deb tarjima qilinishi mumkin. Rahbar nafaqat qaror qabul qilishi, balki xodimlar bilan faol ishlashi ham kerak. Fayolning fikricha, rahbar o'z xodimlarini yaxshi bilishi, ularning ko'nikma va tajribasi egallagan lavozimga mos kelishini nazorat qilishi, malakasizlarga qarshi kurashi, shu bilan birga xodimlarni ma'muriy xatoliklardan himoya qilishi, malakasini oshirish va o'qishga imkon yaratishi zarur.

Bundan tashqari, rahbarlar quyidagilarni amalga oshirishlari lozim:

a) korxona va ishchi-xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish;

b) yaxshi namuna bo'lish;

c) muntazam tekshiruvlar o'tkazish;

d) yuqori rahbariyatni birlashtirish, shunda belgilangan maqsadlarga erishishda birdamlik ta'minlanadi;

e) tafsilotlarga juda chuqur sho'ng'ishdan qochish;

f) boshqariluvchilarda faoliyat, tashabbuskorlik, sadoqat va birlik hukmronligini rag'batlantirish.

Nazorat. Garchi Anri Fayol «ortiqcha nazorat, qog'ozbozlik va byurokratiyaga qarshi kurashish» tarafdori bo'lgan bo'lsa-da, u ushbu funksiyani alohida ta'kidlab, menejerning aralashuvi bilan ijrochining mustaqilligi o'rtasida muvozanatning muhimligini ko'rsatgan. Avvalo, muddatlarga rioya qilishni nazorat qilish, kommunikatsion siyosatning asosiy rejasi dan chetga chiqishlarni kuzatish, faoliyatsizlik va resurslarni behuda sarflashga yo'l qo'ymaslik zarur.

1. Shuningdek, Fayol nazariyasining asosini hozirgacha boshqaruv jarayonlarida asosiy bo'lib qolgan 14 tamoyil tashkil etadi. Bular: mehnat taqsimoti, intizom, yagona boshqaruv, yo'nalish birligi, mukofotlash, markazlashuv, skalyar zanjir, tartib, adolat, xodimlarning barqarorligi, tashabbuskorlik, korporativ ruh, shaxsiy manfaatlarning umumiy manfaatlarga bo'ysunishi, vakolatlar va mas'uliyat[1].

Har qanday korxona tizimlarining samarali ishlashi bevosita kommunikatsion makonni tashkil qilishga, axborot uzatish kanallari va strukturaviy bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirga bog'liq.

Ushbu maqolada kommunikatsion menejmentning asosiy funksiyalari, ularning tashkilotlar faoliyatidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilindi. Unga ko'ra, samarali kommunikatsiya menejmenti tashkilot ichki va tashqi aloqalarini mustahkamlash, xodimlar o'rtasida axborot oqimini muvofiqlashtirish, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari bilan barqaror hamkorlikni ta'minlashda muhim vosita ekanligi aniqlandi. Maqolada aytib o'tilganidek, kommunikatsion menejment quyidagi asosiy funksiyalarni o'z ichiga oladi: axborotni rejalashtirish, yetkazish, monitoring qilish, tahlil qilish va qayta aloqa olish. Ushbu funksiyalarni tizimli va strategik asosda tashkil etish tashkilot imidji, ishonchliligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, kommunikatsion menejmentni to'g'ri yo'lga qo'ygan tashkilotlar o'z faoliyatida yuqori natijalarga erisha oladi. Shu bois, hozirgi globallashuv sharoitida tashkilotlar uchun samarali kommunikatsiya siyosatini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Rezyume: Maqolada kommunikatsion menejment tushunchasi va uning qator funksiyalari haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningek, maqolada dunyo olimlari tomonidan ishlab chiqilgan qator nazariyalar bayon etilgan**.**

Kalit so'z: kommunikatsion menejment, ichki va tashqi kommunikatsiya, funksiya, Anri Fayol nazariyasi, motivatsiya, funksiya, "POSDCORB".

Резюме: В статье представлена информация о понятии коммуникационного менеджмента и его ряде функций. Кроме того, в статье изложен ряд теорий, разработанных мировыми учеными.

Ключевые слова: коммуникационный менеджмент, внутренняя и внешняя коммуникация, функция, теория Анри Файоля, мотивация, функция, «POSDCORB.»

Summary: The article provides information on the concept of communication management and a number of its functions. Also, the article presents a number of theories developed by world scientists.

Keywords: communication management, internal and external communication, function, Henri Fayol's theory, motivation, function, "POSDCORB."

[1] Поляков А.Н. Административное управление Анри Файоля. – М.: Management, 2020. – 80 с.